



## JAHONDA DEMOGRAFIK JARAYONLARNI UMR DAVOMIYLIGI MASALALARI HAMDA DUNYO AHOLISINING STATISTIK TAHLILI

---

*Amonova Nargizaposhsho*

*G'ijduvon 2-son kasb hunar maktabi geografiya fani o'qituvchisi*

### ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada aholining demografik jarayonlarini o'rganish manbalari, ilg'or xorijiy davlatlarda aholi ko'rsatkichlarining hisobini yuritilishi, aholining tabiiy va mehanik harakati ma'lumotlarining yig'ish usullari, aholi registri ma'lumotlaridan foydalanish, aholini ro'yxatga olish, dunyo aholisining tarixi, jahonda istiqomad qilayotgan insonlar takror barpo bo'lishi va dunyo aholisining yosh-jins piramidasi haqida takidlanib, shuningdek, so'ngi yillarda O'zbekiston va dunyo aholisining o'zgarish tendensiyalari hamda aholisi soni eng ko'p va eng kam davlatlar bo'yicha statistik tahlillar amalga oshirilgan.

Zamonaviy O'zbekistonda mutaxassislar tayyorlash sifatini oshirish tizimini isloh qilish muammosi tobora o'tkirlashib bormoqda, bu esa davlatning bozor munosabatlariga kirib kelishi natijasida yuzaga keladigan yangi ijtimoiy ehtiyojlar bilan bog'liq.

**Kalit so'zlar:** demografik jarayonlar, ma'muriy manbalar, aholini ro'yxatga olish, joriy hisob, aholi registri, rivojlanish, aholining o'sishi, mahnatga layoqatli yosh, milliardli kun, aholi harakati, dunyo aholisi, yosh-jins piramidasi, xalqaro mezonlar.

### Kirish

Yer kurrasidagi aholi jahonda istiqomad qilayotgan insonlar takror barpo bo'lishining muttasil jarayonidir. Dunyo davlatlarining har birida sodir bo'layotgan demografik hususiyatlar jumladan aholining takror barpo bo'lishini yer yuzidagi aholining mut'asil ko'payib borishidan ham yaqqol tassavvur qilish mumkin.

Jamiyat taraqqiy etib borar ekan, insonlarning hayot tarzi ham doimiy ravishda o'zgarib boradi. Yer yuzida insonlar tug'iladi, umr ko'radi va hayotdan ko'z yumadi. Bularning barchasi demografik jarayon bo'lib, hammasi ma'lum bir davrni o'z ichiga qamrab oladi. Bu jarayonlarning negizida esa aholi kategoriya sifatida xizmat qiladi.


Aholi - yer yuzida yoki uning muayyan hududi, qit'a, mamlakat, tuman, shaharda istiqomat qiluvchi odamlar majmui hisoblanadi<sup>17</sup>. Aholini tadqiq etish bilan asosan demografiya fani shug'ullanadi. Aholi orasida sodir bo'layotgan



jarayonlarning barchasi biologik, ijtimoiy-iqtisodiy, geografik omillar natijasidir. Ammo aholi rivojlanishiga ta'sir etuvchi asosiy omil bu- iqtisodiy-ijtimoiy omildir. Ushbu iqtisodiy va ijtimoiy omillar tibbiy xizmat sifati, turmush tarzi, iqlim sharoiti, davlatning ekologik jihatdan qulaylik ko'rsatkichlarida yaqqol namoyon bo'lib, aholi umr davomiyligiga hamda uzoq umr ko'rishga o'z ta'sirini ko'rsatadi.

Davlatlarning ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan rivojlanishida unda yashayotgan aholining aniq soni va boshqa barcha turdagi demografik ko'rsatkichlarning mavjudligi muhim hisoblanadi.

Har qanday tadqiqot ishlarida o'rganilayotgan ob'ektning shakllanish manbalari o'rganiladi. Demografik jarayonlarni o'rganish manbalari to'rtga bo'linadi. Birinchisi va eng muhimi aholini ro'yxatga olish, ikkinchisi aholi harakatini joriy hisobga olish, uchinchisi tanlama tadqiqotlar va to'rtinchisi aholi registrlari hisoblanadi.(1-rasm)



**1-rasm. Demografik jarayonlarni o'rganish manbalari**

Respublikamizda demografik jarayonlarni o'rganish manbalaridan ikkinchisi aholi harakatlarining joriy hisobi yuritilib kelinadi. Aholi to'g'risidagi ma'lumotlarning joriy hisobini aholining tabiiy va mexanik xarakati ko'rsatkichlari tashkil qiladi. Bugungi kunda aholining joriy hisobini yuritishdagi birlamchi ma'lumotlarni ya'ni, tug'ilganlar, o'lganlar, nikoh tuzganlar, nikohdan ajralganlar, ko'chib kelganlar va ko'chib ketganlar to'g'risidagi axborotlarni O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligiga Adliya va Ichki ishlar vazirlig'lar tomonidan integratsiya yo'li orqali elektron taqdim etiladi.

Shuningdek, joriy hisob ma'lumotlarini to'plashda dunyodagi barcha davlatlar turli hil manbalardan foydalanishadi.

Uzoq sharq davlatlarida jumladan, AQSh, Islandiya, Norvegiya, Shvetsiya, Daniya, Bolgariya, Vengriya va Finlandiya kabi mamlakatlarda demografik jarayonlarni aks ettiradigan ma'lumotlar aholi registri ma'lumotlar bazalaridan shakllantiriladi.



MDH mamlakatlarida asosan FHDYo ma'lumotlaridan foydalanib kelishadi, Ozarbayjon, Qozog'iston va Tojikiston Respublikalari hamda Rossiya Fideratsiyasida FHDYo ma'lumotlaridan qog'oz shaklida, Armaniston, Moldova va Qirg'iziston Respublikalarida FHDYo ma'lumotlaridan qog'oz shaklida va aholi registri ma'lumotlaridan, Belarus Respublikasida FHDYo ma'lumotlaridan va aholi registri ma'lumotlaridan elektron shaklda foydalaniladi.

Aholining mehanik harakati to'g'risidagi ma'lumotlarni MDH davlatlarida jumladan, Rossiya Federatsiyasi, Ozarbayjon va Tojikiston Respublikalarida ma'muriy ma'lumotlardan qog'oz shaklida, Qozog'iston Respublikasida ma'muriy ma'lumotlardan elektron shaklida, Belarus, Armaniston, Qirg'iziston Respublikalarida ma'muriy ma'lumotlardan qog'oz shaklida va registr ma'lumotlaridan hamda Moldova Respublikasida ma'muriy ma'lumotlar, davlat xizmatlari agentligi ma'lumotlari va aholi registri ma'lumotlaridan foydalanishadi.

### TAHLIL

Dunyo aholisining tarixiga nazar solsak I asrda yer kurrasida 300 million odam yashagan, 1000 yilga kelib 400 million kishiga yetgan, 1500 yilda 500 million kishiga, 1800 yilda 980 million kishiga va 1804 yilda 1 milliard kishini tashkil etgan.

Shundan so'ng 1900 yilda 1 milliard 600 million kishiga, 1927 yilda 2 milliard kishiga, 1960 yilda 3 milliard kishiga, 1974 yilda 4 milliard kishiga, 1987 yil 11 iyulda 5 milliard kishiga, 1999 yil 12 oktyabrda 6 milliard kishiga, 2011 yil 31 oktabr 7 milliard kishiga va XXI asrga kelib ya'ni 2022 yil 15 noyabrda yer yuzi aholisi I asrga nisbatan 27 marotabaga ko'payib 8 milliard kishini tashkil qildi. "Prognozlariga ko'ra, 2050 yilga borib yer yuzidagi aholi soni 9,1 milliard kishiga yetadi.

Olimlarning tadqiqotlari keyingi 6000 yil davomida (XX asrning 60-70-yillarigacha) Yer yuzidagi aholi soni o'sishining giperbolik mutlaq sur'atlari tendensiyasi kuzatilganligidan dalolat beradi. 1960-yillardan boshlab esa jahon aholisi soni ortishning nisbiy sur'atlari pasaya boshladi. 1989 yildan jahon aholisi soni o'sishining mutlaq sur'atlari ham kamaydi. Buni global demografik o'tishning mantiqiy natijasi deyishi mumkin"

BMTning Aholishunoslik jamg'armasi tomonidan shartli ravishda ba'zi bolalarni dunyoning beshinchi, oltinchi yoki yettinchi milliardli aholisi deb e'lon qildi va ramziy tadbirlarni o'tkaza boshladi. Misol uchun 1999 yilning 12-oktabr sanasi "Olti milliardli kun", 2011 yilning 31 oktabr sanasi "Yetti milliardli kun" va 2022 yil 15 noyabr sanasi "Sakkiz milliardli kun" deb belgilandi va ramziy tadbirlar o'tkazildi.



Tahlillarga ko‘ra, 2000-2022 yillar mobaynida dunyo aholisi soni 28,8 foizga (1766,9 mln kishiga) ortgan.


Xitoy Xalq Respublikasi (XXR), Hindiston, AQSh, Indoneziya va Pokiston aholi soni eng ko‘p birinchi beshtalikdagi mamlakatlar hisoblanadi. XXR aholisi 2022 yilda 2010 yilga nisbatan 6,1%ga (78,1 mln.kishiga) o‘sgan bo‘lsa, Hindiston aholisi 2022 yilda 2010 yilga nisbatan 12,1%ga (27,4 mln.kishiga) o‘sgan, AQSh aholisi 2022 yilda 2010 yilga nisbatan 10,2%ga (28,6 mln.kishiga) o‘sgan, Indoneziya aholisi 2022 yilda 2010 yilga nisbatan 14,4%ga (30,5 mln.kishiga) o‘sgan, Pokiston aholisi 2022 yilda 2010 yilga nisbatan 26,3%ga (37,4 mln.kishiga) o‘sgan.

Birinchi beshtalikdagi mamlakatlar orasida aholining yillik o‘rtacha o‘sishi jihatdan eng yuqori Hindistonga to‘g‘ri keladi. 2023 yilda Hindiston XXRni ortda qoldirib, dunyoning aholisi eng ko‘p mamlakatiga aylanishi kutilmoqda.

Dunyoning aholi soni ko‘p mamlakatlar ro‘yxatida Markaziy Osiyo mamlakatlaridan O‘zbekiston 41 o‘rinni egallagan holda 2022 yilda 2010 yilga nisbatan 17,3%ga (4,3 mln.kishiga) o‘sgan.

Yer yuzida aholi soni ko‘p mamlakatlar ro‘yxatida eng quyi pag‘onadan joy olgan davlatlar bu Vatikan 2022 yilda aholisi soni 1000 kishini tashkil etgan undan keyin Tokelou va Niueda 2000 kishini tashkil etgan.

Yosh-jins piramidaga ko‘ra, dunyo aholisining yosh-jins tarkibi progressiv turga xos (2-rasm). Ya’ni dunyo aholisi asosan Afrika, Janubi-sharqiy Osiyo va Lotin Amerikasi mamlakatlari hisobidan tabiiy ko‘paymoqda.



**2-rasm. Dunyo aholisining yosh-jins piramidasi, ming kishi**

Yuqoridagi rasmdan ko‘rinib turganidek, 2000 yilda dunyo aholisining yosh-jins piramidasi erkaklarda xam ayollarda ham 0-4, 5-9, 10-14, 15-19 yosh guruhidagi aholi soni yuqori bo‘lgan. 2010 yilgi yosh-jins piramidasida ko‘rinib turganidek, mazkur yilga kelib aholi tarkibida 10-14 va 15-19, 2022 yilgi yosh-jins piramidasida



esa 15-19 va 20-24 yosh guruhlaridagi aholi soni kamaygan. Aksincha 2010 yilda 0-4, 5-9 va 20-24, 2022 yilda esa 0-4, 5-9, 10-14 va 30-34 yosh guruhidagilar soni ortgan.

Shuningdek dunyo aholisining yosh-jins piramidasidan mahnatga layoqatli yoshdan kattalar ulushining ortayotganligi kuzatishimiz mumkin. 2010 yilda 65-69, 70-74, 75-79, 80-84 va 85 yosh va undan kattalar ulushi kamligi ko'rinadi lekin 2010 yilgi piramidada mazkur yosh guruhidagi aholi oshganligini kurish mumkin. Huddi shunday 2022 yilgi piramidada o'rganilayotgan yosh guruhlarining ulushi ortganligi kuzatildi. Mazkur jarayonga yer yuzida istiqomat qilayotgan odamlarning ichida qariyalar ko'payib borayotganligi ma'lum.

XX asrning 50-yillarida bu ko'rsatkich sezilarli tarzda o'zgardi. Ayniqsa, aholi orasidagi o'lim jarayonining 8-9 marotaba kamayganligi fikrimiz dalilidir.

Buning bosh sababi - aholi turmush tarzidagi ijobiy o'zgarishlar, tibbiy xizmat sifati va salmog'ining tubdan yaxshilanganligidir. Ilgarilari tibbiy xizmatning yomonligi, yashash va mehnat qilish sharoitining og'irligi tufayli aholi orasida vabo, bezgak, rishta va boshqa kasalliklar keng tarqalgan edi. O'lkadagi og'ir turmush sharoiti aholi orasidagi o'limning ko'payishiga, o'rtacha umr ko'rish davrining pasayishiga olib keldi. O'tmishda O'zbekiston aholisining o'rtacha umr ko'rish davri 32-33 yosh bo'lgan. 19 Ushbu raqam esa O'zbekistonda 2020-yilga kelib 73,4 yoshga, erkaklarda 71,2 yosh ayollarda esa 75,5 yoshga yetdi. Aynan biz tadqiq etayotgan mintaqada esa 73,4; 74,0; 73,7 yosh (Samarqand, Buxoro, Navoiy viloyatlari)ni tashkil etgan. Bu o'zgarishlar onalar va chaqaloqlar o'limining pasayishi, spirtli ichimliklar iste'molining kamayishi va tibbiy xizmat sifatining yaxshilanishi bilan bog'liq bo'ladi. Vaholanki, insonlarning qanday yashashi turli hududlarda turli xilligi bilan ajralib turadi.

Shunga qaramay har bir davlat uchun o'rtacha umr ko'rsatkichlari BMT statistik ma'lumotlariga tayangan holatda ishlab chiqiladi. Dunyoning ba'zi hududlarida 100 yoshdan oshish jamiyat tomonidan odatiy hol sifatida qabul qilingan bo'lsa, boshqa mamlakatlarda aholi 45 yosh o'rtacha umrni tashkil etadi. Bunga asosiy sabab ocharchilik, yuqumli kasalliklar, harbiy to'qnashuvlar va urushlardan vafot etadi.

Dunyoning iqtisodiy-ijtimoiy rivojlanishi aholining umr davomiyligiga o'z ta'sirini o'tkazib, qoloq davlatlar esa bunga aks holatda shakllangan.

Masalan, Afrika qit'asining ko'plab mamlakatlari iqtisodiy qoloq davlatlar bo'lib, demografik holati ham shunga mos tarzda vujudga kelgan.



Afrika mamlakatlarida keksalik jarayonlari va pensiya tizimiga doir ma'lumotlar to'plash amaliyoti cheklanganiga qaramay, bu yerda ham bir nechta davlatlar misolida ahvol yil sayin yaxshilanib boryapti. Misol uchun, Afrika Ittifoqi Komissiyasining ijtimoiy masalalar bo'yicha departamenti hozirgi vaqtda maslahat kengashini yaratish bo'yicha qizg'in ish olib bormoqda.

Kengash mintaqada qarilik muammolari siyosati, amaliyoti va tadqiqotlari bilan shug'ullanyapti. Hozirgi kunda Inson va xalqlar huquqlari bo'yicha Afrika komissiyasi keksalar huquqlarini himoya qilish bo'yicha ish olib bormoqda.

Afrika mintaqasida aholining turmush darajasining pastligi, tibbiy xizmatning talab darajasida emasligi, yuqumli va epidemik kasalliklar o'chog'i ekanligi umr davomiyligiga o'z ta'sirini o'tkazadi. Umumiy umr davomiyligi 64 yosh, ayollar 65 yosh, erkaklar esa 62 yoshni tashkil etadi. Bundan ko'rinib turibdiki, aholi orasida tarqalgan kasalliklar umr davomiyligini pasayishiga olib kelmoqda. 2008-yilda Mavrikiy qarilik sohasida yangi milliy siyosat tayyorladi.

Unga muvofiq qariyalarda o'zlariga ishonchni uyg'otuvchi o'quv dasturlari ishlab chiqish yo'lga qo'yildi. Marokash esa 2008-2010-yillarda keksalar uchun daromad, pensiya, sog'liqni saqlash, turar-joy va boshqa xizmatlarni qamrab oluvchi strategiyani ishlab chiqdi va hayotga tatbiq etdi.

Afrika davlatlari o'z konstitutsiyalarida qariyalarga tobora ko'proq e'tibor qaratgan holda o'zgartirishlar kiritmoqdalar. 2010-yilda Keniyada yangi qonun qabul qilindi. Unga ko'ra qariyalarga yordam ko'rsatish uchun hamma rahbar va mansabdor shaxslar jalb etildi. Mozambikda 35 yillik ish stajiga ega bo'lgan deputatlar pensiyaga chiqadi. Qariyalar uchun davlat byutjetidan alohida mablag' ajratiladi.

Nigeriyada qariyalarga e'tibor davlat siyosati darajasiga ko'tarilgan.

Avvallari faqat. 2004-yilga qadar davlat tashkilotida ishlaydiganlargina nafaqa olgan bo'lsa, keyinchalik o'tkazilgan pensiya islohotiga ko'ra esa norasmiy tashkilotlar ham o'z ishchilariga nafaqa bera boshladi. Lekin hamon moliyaviy yetishmovchilik bois, aholiga to'liq nafaqa berilmayapti.

Svazilend Afrikaning eng mitti davlatlaridan biri bo'lib, bu yerda aholi o'rtacha 58 yil yashaydi. Bu ko'rsatkich ko'proq odamlarning to'liq antisanitariya sharoitida yashashga majbur bo'lganligi bilan izohlanadi. Ijtimoiy xavfsizlik amalda yo'q, tibbiyot kam rivojlangan, ishsizlik 40 foizdan oshadi, shuning uchun odamlar o'zlarini va oilalarini boqishga qodir emaslar. Bu yerda bolalar o'limi eng yuqori ko'rsatkichlar qatoriga kiradi. Ko'pincha oilalarda 5-8 nafar bola tug'iladi, ammo ularning hammasi ham voyaga yetmaydi.





Lesotada aholi o'rtacha 54 yil yashaydi. Bu Janubiy Afrika Respublikasi hududi bilan to'liq o'ralgan yana bir kichik davlat. Bu yerda ham eng katta muammo tibbiyotning rivojlanmagani va iqtisodiy jihatdan qoloqlik hisoblanadi.

Bundan tashqari mamlakatning ikki million aholisi orasida har to'rtinchisi OITS bilan kasallangan, bu ko'rsatkich yildan yilga ortib bormoqda.

Aholi soni bo'yicha jahonda ikkinchi o'rinda turuvchi Hindistonda 1950-yili o'rtacha umr ko'rish yoshi ayollarda 31,7 yosh, erkaklarda esa 32,4 yoshni tashkil etgan. 1960-yil ayollarning umr ko'rish salkam 9 yilga uzaydi va 40,5 yoshni, 2009-yilda esa bu ko'rsatkich 65 yosh kuzatildi. 1950-1960-yillarda erkaklarning umr ko'rish esa 9,5 yoshga uzaydi va 41,9 yoshni, 2009-yilda esa 63 yoshni tashkil etdi. Bu ko'rsatkich 2020-yilga kelib 69 yoshga yetdi. Bunday holni Afrika, Lotin Amerikasi va Osiyodagi qator davlatlarda ham kuzatish mumkin.

### XULOSA

Talabalarning mustaqil bilim olishida, o'tilgan mavzuni takrorlashda hamda olgan bilimlarini tekshirishda trenajyor, ma'lumotli, o'yin, nazorat qilish dasturlarini qo'llash, ularni o'rganilayotgan mavzu bo'yicha amaliy bilim va malakalarini shakllantirishda muhim ahamiyatga ega bo'ladi hamda o'quvchilarning amaliy qobiliyatlari va malakalarini shakllantirishda muhim rol o'ynaydi.

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, demografik hodisalar rivojlanishining qonuniyatlarini faqat demografik voqealar haqidagi ko'p qirrali, batafsil va ishonchli ma'lumotlar asosidagina bilish mumkin. Mamlakatdagi haqiqiy demografik vaziyatni aks ettiruvchi bunday ma'lumotlarning statistik hisobini yuritish tizimini takomillashtirish, shuningdek, joriy hisob yuritish dasturlari, aholini ro'yxatga olish dasturlari va aholi o'rtasida o'tkazilgan so'rovlarni taqqoslash orqali olish mumkin.

Aholining umr davomiyligi aholining turmush sharoiti, davlatning iqtisodiy holatiga bog'liq. Shunday ekan mamlakatlarning iqtisodiy-ijtimoiy rivojlanishigina aholini yaxshi yashash hamda umrning uzayishiga olib keladi.

### REFERENCES

1. Sh.M.Mirziyoyev Qonun ustivorligi va inson manfaatlarini ta'minlash-yurt taraqqiyoti va xalq farovonligi garovidir. Toshkent O'zbekiston. 2017 yil.
2. Sh.M.Mirziyoyev Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. – T.: "O'zbekiston", 2017. – 488 b. 3.
3. "XXI asr pedagogikasining dolzarb vazifalari" Xalq ta'limi", 2007-yil



4. [Poulain, herm 2013: 190]. Е.Третьякова, А.Макаренцева Использование регистров населения для учета и анализа незарегистрированных браков, ДЕМОГРАФИЧЕСКОЕ ОБОЗРЕНИЕ. 2016. ТОМ 3, №3: 147-169,

5. <http://cisstat.org> MDH statistika qo‘mitasning Aholi tabiiy harakati va maholi migratsiyasi jarayonlarining statistik monitoringi jarayonida hamdo‘stlik mamlakatlari amaliyoti to‘g‘risidagi 2021 yil uchun hisoboti. 3. Абдурахмонов Қ.Х., Зокирова Н.К. ва бошқалар. Демография. Дарслик. - Т.: “ИQTISODIYOT”, 2014. - 74 б;

6. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Fuqarolik holati dalolatnomalarini qayd etish qoidalarini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 387-sonli qarori. Toshkent. 2016-yil 14-noyabr. <https://lex.uz/docs/3064981>.

7. Problems of the effective use of irrigated land in Bukhara region and ways to improve them SNB O Khamidov, D Sh Yavmutov E3S Web of Conferences 431 (01056), EDP Sciences

8. Development of " Green economy" in the sectors of the economy and its prospects SN Burxonov Academic research in educational sciences 3 (5), 1332-1337

9. <https://lex.uz/docs/-5297046#-5297465>